

O'QUVCHI YOSHLARGA O'ZBEK MILLIY CHOLG'ULARINI IJRO ETISH JARAYONIDA PEDAGOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Uvaydulloyev Azizbek Dilmurod o'g'li

O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat instituti

"Cholg'u ijrochiligi" mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa, musiqa cholg'u asboblari, ularning turlari, bolalarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishi, musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning qo'shiq kuylashi holati, bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakkllantirish, shu maqsadda musiqa psixologiyasi va turli xil o'yinli texnologiyalardan foydalanish, notaga qarab ijro qilish hamda uning murakkab jarayonlari to'g'risida batafsil yozilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy-ritmik harakatlar, musiqa psixologiyasi, o'yinli texnologiyalar, taraqqiyot strategiyasi

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается музыка, музыкальные инструменты, их виды, детские музыкально-ритмические движения, состояние детского пения под наблюдением учителя музыки, формирование детского музыкального творчества, музыкальная психология, использование различных игровых технологий, игра согласно примечанию, а также его сложные аспекты. Ключевые слова: музыка, музыкальные инструменты, дети, музыкально-ритмические движения, музыкальная психология, музыка.

ABSTRACT

This article discusses music, musical instruments, their types, children's musical and rhythmic movements, the state of children's singing under the supervision of a music teacher, the formation of children's musical creativity, musical psychology, the use of various gaming technologies, playing according to the note, as well as its complex aspects. Keywords: music, musical instruments, children, musical-rhythmic movements, music psychology, music.

KIRISH. Musiqa (yun. mousiche —muzalar san'ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui bo'lib, bugungi kunda musiqa va san'atning inson hayotidagi tutgan o'rni benihoya oshib bormoqda. Shu sababli ham aholi o'rtasida bunga bo'lган ehtiyoj sezilarli darajada kuchaymoqda. Shuni hisobga olgan holda o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida milliy musiqaga bo'lган qiziqishlarini kehg imkoniyatlarni ishga solgan holda singdirib borishni taqazo etadi.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI YANADA RIVOJLANTIRISHGA DOIR QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RISIDA

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy madaniyatimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrash va uni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish borasida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinmoqda hamda hayotga tatbiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagagi PQ-112-sonli qarorida aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagи ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq: shu bois pedagogik mahoratni qo'llagan holda

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida:

o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjati (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladmilly cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi;

musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi;

notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi;

o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar (keyingi o'rinnarda — amaliy to'garaklar) tashkil etiladi;

amaliy to'garaklar rahbarlariga "Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garak rahbari uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari qo'llaniladi;

amaliy to‘garaklarni olib borish hisobi “Elektron kundalik” dasturi orqali amalga oshiriladi hamda har chorakda to‘garak ishtirokchilarining hisobot konsertlari tashkil qilinadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda hududlardagi umumta’lim maktablarida musiqa va madaniyatni har tomonlama o’zlashtira oladigan yosh iste’dodlar aniqlanib. ularga tanlagan yo’nalishlari bo’yicha amaliy ko’nikmalar berilib, shu sohaning haqiqiy mutaxassislari shakllantirilishiga erishiladi. Bunda o’qituvchi har bir bolaga pedagogik nuqtai nazardan yondoshib, bolaning psixologik jihatlarini hamda jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini puxta o’rganishi katta ahamiyatga egadir. O’z iqtidorini boshqalarga nisbatan erta namoyon etuvchi o’quvchilarni saralab olish va ular bilan individual tarzda ko’proq amaliy ishlarni olib borish, ularni ko’rik-tanlovlarga jalb etgan holda yaxshi natijalarga erishtirish hamda yutuqlarning samarasi ularoq ularni har tomonlama rag’batlantirish ishlarini to’g’ri tashkil etmog’imiz lozim

Musiqa insonning turli kayfiyatları (masalan, ko’tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g’amginlik, xavf-qo’rquv va boshqalar) ni o’zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o’ychanlik, vazminlik va boshqalar) ni, uning tabiatı (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiylar, tasavvuf arboblari — Imom G’azzoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqalar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishining ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo’lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiatı bilan bog’liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g’oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o’zaro munosabatlar (taqqoslanish, to’qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlari ko’ra musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo’lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo’lgan lirika musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo’lib, bunda ma’lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur’at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma’naviy-ma’rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtida inson faoliyatining ko’pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o’zaro etik va estetik ta’sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg’ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag’batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir (5).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quvchi yoshlarni musiqiy ta'limda cholg'u ijrochiligiga qiziqtirish to'g'risida fikr yuritishdan avval, musiqa cholg'u asboblari haqida to'xtalib o'tsak. Musiqa cholg'u asboblari musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblар; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambl, orkestr va boshqalar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqa cholg'u asboblарining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazon, tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialga bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari qadimdan qamish, bambuk, yog'och, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yong'og'i, qovoq va boshqalardan tayyorlangan. Sadolanish xususiyatini qo'shimcha vositalar, ijrochilik uslublari (masalan, torli sozlarni tirkab-chertib chalish, flajolet va boshqalar), ba'zi musiqa bezaklari yordamida o'zgartirish mumkin. Uning paydo bo'lishi insoniyat tarixinining ilk davrlariga to'g'ri keladi, mukammallanishi esa musiqa san'ati va ijrochilikning rivojlanishi hamda musiqa cholg'u asboblарini ishlab chiqarish texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Musiqa cholg'u asboblari tovush manbalariga qarab guruhlarga, ijrochilik uslubi (yoki ishlatilgan mexanizmi) ga qarab guruhchalarga, o'ziga xos qo'shimcha belgilariga qarab xillarga bo'linadi. Musiqa cholg'u asboblari, asosan, torli (xordofonlar), puflab chalinadigan (aerofonlar), teri qoplamlari (membranofonlar), tilchali (gemidiofonlar), plastinkali, elektr va elektron musiqa cholg'ulari- idiofonlar guruhlariga bo'linadi. Torli cholg'u asboblarning guruhlari: kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o'zbek sozlaridan g'ijjak, ko'biz, sato va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do'mbira va boshqalar), urib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali va boshqalar), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib chalinadigan sozlar (klavesin va uning turlari). Puflab chalinadigan cholg'u asboblarning guruhchalari: tilchali sozlar (surnay, qo'shnay, bo'lamon, shoxnay, klarnet, goboy va boshqalar), tilchasiz sozlar (naylar, fleytalar), mundshtukli sozlar (truba, valtorna, tuba, karnay va boshqalar), pnevmatik klavishli sozlar (organ va uning turlari). Tilchali cholg'u asboblarning bo'limlari: pnevmatik klavishli sozlar (fisgarmoniya, bayan, akkordeon va boshqalar), chertib chalinadigan sozlar (changqobiz va uning turlari), urib chalinadigan sozlar (fleksatonlar). Teri qoplamlari urib chalinadigan cholg'u asboblarning guruhchalari: sozlanadigan (litavralar), sozlanmaydigan (nog'ora, doira, baraban, tamburin va boshqalar) cholg'u asboblар. Plastinkali cholg'u asboblarning guruhchalari: urib chalinadigan rezonatorsiz sozlar (ksilofonlar va boshqalar), urib chalinadigan rezonatorli sozlar (ovoz beradigan plastinkalari ostida ma'lum hajmdagi rezonatorlar — trubkalar, bo'sh idishlar va h. k. o'rnatilgan metallofon, marimba, vibrafon va boshqalar), klavishli urib chalinadigan

sozlar (chelesta va boshqalar). Idiofonlarning guruhchalari: sozlanadigan (orquestr kolokoli, ko'ng'iroqchalar, gong va boshqalar), sozlanmaydigan (tarelkalar, tamtam, marakas, qayroq, qoshiq, safoil, likop, patnis, mislagan, zang va boshqalar) cholg'u asboblar. Musiqa cholg'u asboblaria. ba'zida xalq va professional (orquestr) turlarga ham bo'linadi. Orkestr cholg'ulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan ko'p ovozli musiqa asarlari ijrosiga moslashtirilgan. Xalq cholg'ulari esa ma'lum millat (elat) monodik musiqa ijrosi uchun qo'llaniladi va musiqiy tovush quroli bo'lish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir; mukammal shaklda xalq badiiy tafakkuri, nafosat tasavvurlari, ramziy ma'nolar aks etgan. Cholg'ular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shomonbaxshilar, afsungarlar ruhiyatga ta'sir o'tkazishda, harbiylar, cho'ponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qo'rqtuvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan. (7)

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bolalarda musiqa tinglashga ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda musiqiy asarning o'rni ham kattadir. Musiqa asarining kayfiyati, xarakterini mustaqil farqlash, taassurotlari haqida hikoya qilishga o'rgatish, vokal va cholg'u asarlaridan bahramand qilish va bu janrlar haqida tushuncha hosil qilish, ularni farqlashga o'rgatish. Marsh, qo'shiq va raqs haqidagi bilimlarini kengaytirish, o'zbek xalq kuylari bilan tanishtirib borish, doira va nog'ora sadolaridan bahramand qilish, qayroq, taxta qarsak bilan tanishtirish har bir musiqa o'qituvchisining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalarning musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishi, ya'ni musiqaning tempi, ritmi, harakteriga mos ifodali harakatlanishi, kuy qismlari almashishiga qarab harakatlarni o'zgartira olishi zarur. Yengil, prujinasimon yurish, yugurish, sakrash, olding va orqaga, yonga qadam tashlash, oldinga hakkalash, raqs harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatish, musiqa ostida qatorlarga saflanish va mashqlar bajarish, qatorlardan doiraga shakliga o'tish, katta va kichik doiralar hosil qilish, bir nechta kichik doirachalarga bo'linishga o'rgatish, bolalarga o'zbekcha raqslar bilan bir qatorda turli xalqlar raqslarini o'rgatish, bolalarda raqsga oid ijodkorlikka undash va uning namoyon bo'lishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Musiqa o'qituvchisi nazoratida bolalarning qo'shiq kuylashi holati quyidagicha amalga oshiriladi: bolalarda ifodali, sof va tabiiy ovozda kuylashga o'rgatish, bolalarni ovozining yosh xususiyatlarini hisobga olib repertuar tanlash, to'g'ri nafas olish hamda kuylash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kichik ansambl bo'lib kuylash, solist bilan kuylashga o'rgatish, kuy ohangini to'g'ri ijro etilishiga erishish, shu bilan birga bolalarni ijrochilik cholg'ulariga qiziqtirish hamda ularni chalishga o'rgatish esa: doira, nog'ora, safoyil, quticha, taxta qarsak kabi cholg'ulari va ularda ijro etish usullari bilan tanishtirish, ovozidan farqlashga o'rgatish, kattalarga jo'r bo'lib zarbli orkestr hosil qilish juda yaxshi samara beradi.(6)

Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakkllantirishda asosan, o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shiqlarni sahnalaشتirish, davra qo'shiqlarida so'z, musiqa va harakatlarning bir-biriga mos bo'lishiga erishish, o'yinlarda musiqa mashg'ulotining barcha bo'limlaridan olingan bilimlarini mujassam holda namoyon etishga o'rgatish, obrazli harkatlarni bajarishda bolalarni umumiylidkan mustaqil va yakka bajarish sari boshlash, bolalarda obrazli tasavvur qilish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik kabi hususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish o'quvchi yoshlarni musiqiy ta'lilda cholg'u ijrochiligiga qiziqishini uyg'otadi.

6 yoshli bolalar bilishi lozim bo'lgan bilimlar:

-Musiqa asarining shaklini mustaqil aniqlay olish;

-Tinglangan asarlarning nomi va ijodkorlarini bilish;

-Musiqa asarining mazmunini tushunish va kayfiyatini farqlash;

-Bir oktava oralig'ida notalarini bilish, tovushqatorini kuylash; -Vokal va cholg'u musiqasini farqlash;

-Orkestr, simfoniya, opera va balet janrlari haqida umumiylidkan tushunchaga ega bo'lish;

-Qo'shiq nomi va bastakorini bilish;

-Musiqa mos mustaqil harakatlana olish;

-Kuy qismlari o'zgarishiga qarab harakatlarni o'zgartirish;

-Cholg'u asboblarini farqlay olish;

-Bolalar cholg'ularida ijro usullarini bilish;

-Mustaqil obrazli harakatlar o'ylab topa olish va bajara olish;

-Bayram ertaliklari va ko'ngil ochish soatlarida faol ishtirok etish.

Shu bilan birga 7 yoshli bolalar quyidagilarni bilishi kerak bo'ladi:

1. Kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay oladi.

2. Tovushlarning balandlik, tembr, cho'zimlilik hususiyatlarini eshitish orqali farqlaydi.

3. Ma'lum raqs harakatlarini egallaydi.

4. Jamoa bo'lib va yakka raqsga tusha oladi.

5. O'yin, raqs va mashqlarda mimik harakatlarni aks ettira oladi.

6. O'zbek xalq cholg'u asboblarini ko'rinishi va ovoz tembriga ko'ra farqlaydi.

7. Bolalar cholg'ulari ansambli va orkestrida ijro etish malakalarini egallaydi.

8. Tinglangan va kuylayotgan kuy va qo'shiqlarini mazmunini anglaydi va bayon etadi.

9. To'rli musiqiy o'yinlarni mustaqil tashkil eta oladi.

10. Bayram ertaliklarida faol ishtirok etadi. (1,26) Ta'lim tizimida integrallashtirilgan mashg'ulotlarda musiqali didaktik o'yin psixologiyasi haqida ham

qisqacha to'xtalib o'tsak. Musiqa psixologiyasi psixologiya yo'riqlariga asoslanar ekan, bu tarmoq bolalarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mkon beruvchi musiqa pedagogikasiga uzbek bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqa psixologiyasida musiqiy zehn, musiqiy iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarlarni o'rganish va ular ustida ishlash, kontsertlarda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, bolalar va kontsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar bolalar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. (2,30) Shu bilan birga o'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladiki, buning oqibatida har bir bola o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi. Ijtimoiy hayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. Mustaqil mashg'ulot qanday tuzilishi kerak va nimalardan iborat bo'ladi? Yuqorida aytib o'tganimizdek, mustaqil mashg'ulot uchun berilgan vazifa qanchalik aniq, konkret bo'lsa, o'quvchining vazifasi shuncha osonlashadi. Mustaqil mashg'ulot qanday kechishidan qat'iy nazar, uni ma'lum reja asosida olib borish yaxshi natija beradi. Quyida mutaqil mashg'ulotlarning taxminiy tuzilishi va vaqtini keltiramiz: 1. Gamma, uch tovushliklar va turli mashqlarni ijro etish 10-15 daqiqa. 2. Yangi berilgan vazifani o'zlashtirish 15-20 daqiqa. 3. Dam olish uchun 5 daqiqa. 4. Oldin o'rganilgan vazifalarni takrorlash 20-25 daqiqa. Keltirilgan vaqtlar me'yori taxminiy bo'lib, uni belgilashda o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda vazifalar hajmining katta-kichikligiga qarab kamaytirish yoki, aksincha, ko'paytirish mumkin. Mustaqil mashg'ulot uchun keltirilgan taxminiy vaqtning jami 45-60 daqiqani tashkil etyapti. Bu bir qarashda kamdek ko'rinishi mumkin. Ammo mashg'ulotlar muntazam ravishda davom ettirilsa, ko'zlangan natijaga bemalol erishish mumkin. O'zbek xalq cholg'uchilarida ijroni o'rganayotgan yosh sozandalarda fortepiano bilan birlashtirishda ijro paytida ko'proq uchrab turadigan kamchiliklardan biri musiqa asari ijrosini fortepiano bilan bir vaqtida boshlay olmaslikdir. Bu paytda o'quvchining diqqati tamomila o'zining ijrosiga qaratiladi va natijada fortepiano jo'rliги solistning ijrosi bilan bir vaqtga to'g'ri kelmay qoladi. Ijroni fortepiano bilan birlashtirishda ko'nikmasini shakillantirishda musiqa asarining birinchi tovushi boshlanishdan oldingi harakat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Buni asarning boshlanishidagi dirijyorning qo'l harakati (auftakt)ga o'xshatish mumkin. Musiqa asari davomida cholg'uchi partiyasida ma'lum miqdorda pauzalar uchrab turadi. Bunday paytda fortepianodagi ijro, odatda davom etadi. O'quvchi pauzalarning necha taktligini eslab qolish bilan bir qatorda o'z ijrosining qachon boshlanishini ham puxta bilib olishi kerak. Bunda pauza davomidagi fortepiano ijrosini to'la anglab olishi yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, musiqa asaridagi asosiy kuyning yo'nalishini aniqlab olish fortepiano jo'rligida ijro etishda asosiy vazifalardan biridir. Ma'lumki, har bir musiqa asari ma'lum kuy (ohang) asosida

qurilgan bo‘ladi. Mana shu kuy fortepiano partiyasidami yoki solist partiyasidaligini ajrata bilish konsertmeyster bilan chalish vaqtida ijroning to‘laqonli bo‘lishiga yordam beradi. Fortepiano partiyasini yuzaki bilish cholg‘uchi uchun hetarli emas. Fortepiano partiyasi solistning partiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, musiqa asarining buzilmas kompozisiyasini tashkil etadi. Shuning uchun haqiqiy ijro ulardan ansambl qonun-qoidalariiga bo‘ysungan holda katta mehnatni talab qiladi. Cholg‘uchining fortepiano bilan birgalikdagi ijrosi qanchalik o‘z vaqtida boshlansa, musiqa asarini o‘zlashtirilishi shunchalik sifatli va tez bo‘ladi. Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi. Notaga qarab ijro etish jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, unda quyidagi qismlarni ko‘rishimiz mumkin:

- nota ko‘rinishing o‘quvchi ongiga yetib borishi;
- o‘quvchi ongida qanday harakatni amalga oshirish kerakligining aniqlanishi;
- kerakli harakatlar yordamida berilgan notaning ijro etilishi.

Notaga qarab ijro etish jarayonining qanchalik tez sodir bo‘lishi nota ko‘rinishingini qabul qili b (anglab), kerakli harakatni amalga oshirish tezligiga bog‘liq. Agar jarayonning biror qismi yaxshi ishlama, notaga qarab ijro etishda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin bo‘ladi.(3,29) Notaga qarab ijro etishning murakkab taraflaridan biri shuki, musiqa asarining bir qismi ijro etilayotganda cholg‘uchi keyingi qismini ko‘rib, uning ijrosiga tayyorgarlik ko‘rishga tayyorlanadi. Tajribasiz o‘quvchilar ko‘p holda buning uddasidan chiqa olmaydilar natijada, ularning ijrolari uzilib qoladi. Diqqat-e’tiborni bir maqsadga qarata bilish notaga qarab ijro etishning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan omillardan biridir. Notaga qarab ijro etish qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi amaliy mashqlar yordam berishi mumkin; eng oddiy musiqa, boshlang‘ich taktning birinchi yarmi ijro etilayotganda o‘quvchi o‘z e’tiborini shu taktning ikkinchi yarmiga qaratadi. Xuddi shu usul asarning keying taktlarini ijro etishda ham qo‘llanadi. Sozandada notaga qarab ijro eta olish qobiliyatini rivojlatirish muammosi va uni hal etishga qaratilgan ko‘rsatmalar musiqa pedagogikasida alohida o‘rin tutadi. Ko‘zga ko‘ringan ijrochi - o‘qituvchilarning fikricha, notaga qarab ijro etish sozandaning kundalik mashg‘ulotlari qatoridan o‘rin olishi shart. O‘quvchi muntazam ravishda notaga qarab ijro etish bilan shug‘ullangan taqdirda turli davrga oid bo‘lgan rang barang musiqa asarlari bilan tanishadi.(4,63)

XULOSA

Agar istisno tariqasida maktabgacha yoshdagagi bolalarga estetik tarbiya berishni ko‘radigan bo‘lsak, bunda musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: 1. Musiqa – bolalar estetik tarbiyasida asosiy o‘rin tutadi. 2. Bolalar musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Chunki jamiyat ma’naviyatini shaxs ma’naviyatining yuksakligi, qolaversa, bolalarning musiqiy estetik madaniyatning shakllanganlik darajasi tashkil etadi. 3. Hozirgi kunda

maktabgacha ta'lif muassasalarida musiqa mashg'ulotlari imkon darajasida tashkil etilgan, ammo kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbilash uchun davr talabi asosida musiqa mashg'ulotlarini yanada takomillashtirish va qo'shiq o'rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda. 4. Bolalar ma'naviy-estetik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun mo'ljallangan tadbirdarda qo'shiq va raqlardan ko'proq foydalanish lozim. 5. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish maqsadida muntazam tashkil etiladigan tadbirdarga o'zgacha ruh bag'ishlash kerak. 6. Demak, maktabgacha ta'lif muassasalarida musiqa vositasida kichik yoshdagi bolalarni musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog'chasida musiqa T.: O'qituvchi. 1990. 26-bet
2. Adabiyotlar: Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993. 30-bet
3. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog'chasida musiqaviy o'yinlar va bayram ertaliklari. T.: O'qituvchi. 1993. 29-bet
4. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi. T.: Ilm
5. ziyo. 2006. 63-bet
5. <https://fayllar.org/>
6. <https://uz.wikipedia.org/>
7. <https://goaravetisyan.ru/>